

Rozemari Fell unchalik go'zal ayol emas. Ishqilib uni go'zal deyish qiyin. Yo, "chiroylikkina", deb atasakmikan? Ha, ha, agar Rozemarining fazilatlarini sinchiklab kuzatsak... Nazarimda, sinchiklab kuzatish ham unchalik shart emas-ov...

Rozemari yosh, istarasi issiq, zamonaning eng so'nggi urfida did bilan kiyinadigan, kitobxonlikka o'ch ayol. Uni turli kasb egalari davrasida tez-tez uchratasiz. Davradoshlarining ba'zilari yoqimtoy, ajoyib kishilar bo'lib, ayrimlari esa g'alati-g'alati fe'l-atvorli edi.

Rozemari bundan ikki yil oldin turmushga chiqqandi. Maykl ismli erkato'y o'g'li bor. Eri ham sidqidildan uni sevadi. Bu oila boy yashashardi, haqiqatdan ham boy.

Rozemari biror narsa xarid qilmoqchi bo'lsa, ko'proq Parijga boradi, men esa Bond ko'chasiga boraman. Mabodo Rozemarining ko'ngli gulga ketsa, mashina uni muhtasham binolar joylashgan Rejent ko'chasiga olib boradi. Shunda Rozemari do'kon peshtaxtalariga hayrat bilan boqib:

- Men ana uni, mana buni va yana manavini ham olmoqchiman, - deydi. - Ana undan to'rt dasta bersangiz. Ana u ko'zadagi atirgullarni ham. Ha, hammasini bering. Yo'q, yo'q, nastarin kerak emas. Nastarinni yoqtirmayman, judayam beso'naqay.

Rozemarini mashinagacha ozg'ingina sotuvchi qiz kuzatib qo'yadi. Uning bir quchoq gul ko'tarib odimlashi xuddi beso'naqay kiyim kiyib olgan yosh bolaning yurishiga o'xshardi.

Qish kunlarining birida Rozemari Keson ko'chasidagi kichkina qadimiy do'konchaga kirdi. Bu uning sevimli do'koni edi.

Do'konda kerakli hamma narsani topish mumkin. Sotuvchi ham unga bajonidil xizmat qiladi. Bo'sag'ada Rozemarini ko'rdi deguncha quvongan chehrasi yorishib ketadi. Hatto sevinchdan tili zo'rg'a gapga keladi. Xushomal albatta. Ammo, bu yerda bir sir bor-ov...

- Bilasizmi, xonim, -tushuntirishga harakat qilardi u muloyim ovozda, - mollarimning qadrini bilmaydiganlarga sotgandan ko'ra, ularni sotmaslikni afzal ko'raman. Gapning ochig'i ularning qadr-qimmatini kamdan-kam odam biladi.

Shunday deya sotuvchi peshtaxta oynasi ustiga baxmalga o'ralgan jajjigina qutichani qo'ydi. U buni Rozemari uchun saqlab kelayotgandi. Hali hech kimga ko'rsatganicha yo'q. Nafis did bilan ishlangan quticha shunchalik jozibali yaraqlardiki, xuddi oftobda tovlanayotganga o'xshaydi. Quticha qopqog'ida yigit bilan qizning rasmi bor ekan. Ular gul tagida yonma-yon turishar, qizchaning qo'llari yigitning yelkasida edi. Qizning shlyapasi geranium bargidan sal kattaroq bo'lib, uzun shoxchalardan to'qilgandi. Atrofi yashil lenta bilan o'ralgan edi. Yana ularning ustida sezgir farishta o'xshagan bulutcha suzib yurardi.

Rozemari qo'lqopini yechdi. U har doim biror narsa sotib olmoqchi bo'lsa shunday qilardi. Ha, bu unga yoqqandi, judayam yoqqandi. Bu haqiqiy omad edi. Sotib olishi kerak. Qutichaning u yoq-bu yog'ini ko'rdi, ochdi, yopdi, qo'llari ko'm-ko'k baxmalga judayam yarashdi. Bunga e'tibor bermay bo'lmasdi. Sotuvchi peshgaxtaga suyanib ruchkasi bilan yarqirab turgan qutichani sal nari surib sekingina pichirladi:

- Sizga aytsam, xonim, gullariga e'tibor bering.

- Ha, ajoyib! - Rozemarini gullar hayratta soldi.

- Xo'sh, narxi qancha?

Sotuvchi, go'yo, o'zini eshitmaganga soldi. Keyin pichirlagan ovoz eshitildi.

- 28 giney, xonim.

- 28 giney?

Rozemari sezdimadi. Qutichani joyiga qo'ydi; qo'lqoplarini kiydi.

- 28 giney? - Uning kayfiyati buzildi. - Iltimos, olib qo'ying, keyin olaman, - dedi ovozi qaltirab.

Sotuvchi allaqachon tushungandi. Albatta, u Rozemari uchun qutichani bir umr saqlaydi.

Tashqaridagi eshik g'ijirlab yopildi.

U qish havosini kuzatdi. Yomg'ir yog'mokda. Havo sovuq bo'lib, hozirgina yongan ko'cha chiroqlari xomushday ko'rinadi. Ular neldandir afsuslanganday xira shu'la sochib turishardi. Odamlar ham har tarafga shoshilishmokda. Rozemari qandaydir g'alati bo'ldi. Judayam qutichani olgisi kelgandi.

Albatta, mashinasi joyida edi, faqat yo'ldan o'tish kerak. Lekin nimagadir jimgina turardi. Hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin, kimdir adashadi, kimdir ularga yo'l ko'rsatadi, ba'zilar yo'q.

Xuddi shu payt allakim:

- Kechirasiz, xonim, - deb uning xayolini bo'ldi.

Rozemari burilib orqasiga qaradi. Oldida qorachadan kelgan judayam yosh bir qiz turardi. U xuddi suvdan chiqqan odamday qaltirardi. Qaerdan kelgan bo'lsa?

- X-xonim, - duquqlandi qiz, - ozroq choy-chaqa puli bering.

- Choy-chaqa? - hayron bo'ldi u. Bu ovoz umuman gadoy ovozig'a o'xshamasdi.

- Umuman puling yo'qmi? - so'radi Rozemari.

- Yo'q, xonim.

Qiziq, Rozemari unga yaqinlashdi. Bundan ham qizig'i bo'ladimi, axir? Birdaniga bu voqea Rozemari uchun sarguzashtday tuyuldi. Bunday havodagi uchrashuv xuddi Dostoevskiy romanidan olinganday. Tavakkal qilib qizni uyga olib ketsa-chi? Nima bo'lar ekan? Juda qiziq bo'lardi. Shunda u hayron qolgan do'stlariga: "Uyimga olib kelgandim, xolos", - degan bo'lardi. Keyin oldida turgan qizga:

- Yur uyga, birga choy ichamiz, - dedi.

Qiz kutilmagan taklifdan orqaga chekindi. Hatto qaltirashdan ham to'xtadi.

Rozemari qizning qo'lidan ushlab:

- Nimaga hayron bo'layapsan? Qani ketdik, - dedi jilmayib.

- Yo'q, yo'q, xonim, - dedi qiz seskanib.

- Yo'q, borasan, - dedi Rozemari qat'iy.

- Siz, siz meni politsiyaga olib bormaysizmi?

- Politsiyagami? - birdan kulib yubordi Rozemari. - Nahotki shunday deb o'ylasang? Yo'q, faqat yordam bermoqchiman, xolos.

Ular mashinaga o'tirishdi va uyga yo'l olishdi. Yo'lda ayol asirasiga bunday tasodifiy uchrashuvlar hayotda bo'lishini, farishta, mehribon onalar haqiqatda borligini tushuntirmoqchi bo'ldi. Gap oxirida:

- Qo'rqmasdan yuraver. Axir ikkalamiz ham ayolmiz... - deb qo'ydi.

Nihoyat mashina to'xtadi. Qo'ng'iroq chalindi, eshik ochildi, birga uyga kirishdi. Issiqlik, yorug'lik, uydagi shinamlik, hamma

narsa o'ziga o'xshardi. Shu vaqtgacha bilmagan ekan. Uydagi hamma jihoz uni kutardi.

- Qani yur yuqoridagi xonamga, - dedi Rozemari ochiq ko'ngillik bilan. U beozor qizni hech kimga ko'rsatishni xohlamadi.

Zinadan chiqishi bilanoq xizmatkorni ham chaqirmasdan o'zi qizning kiyimlarini almashtirmoqchi bo'ldi. Bunday tasodifiy hodisa tabiiy bo'lishi kerak, axir!

- Shu yerga, - dedi u yanada keng, chiroyli xonaga kirishgach.

Xonaning pardalari tushirilgan, olov yoqilgan, issiq, havorang gilamlar, hammasi xonaga yarashgan edi. Qiz eshik oldida turib qoldi. U hayron edi. Rozemari e'tibor bermadi.

- Qani, o'tir, - dedi u stulni olov yoniga siljitib. - Ozroq isinib ol, judayam sovqotganga o'xshaysan.

- Rahmat, xonim, - dedi qiz biroz uyalib.

- Qo'rqqmasdan joylashaver. Kiyimlarimni almashtirguncha o'tirib tur. Keyin boshqa xonaga o'tib choy ichamiz. Namuncha qo'rqqmasang. - Shunday deya u qizni yelkasidan ushlab o'tqizib qo'ydi.

Qaytib kelganda u qizni qanday o'tqizib ketgan bo'lsa shu holda ko'rди. Rostini aytganda qiz ovsarga o'xshardi. Rozemari e'tibor bermadi. Unga biroz egilib:

- Shlyapangni yechmaysanmi? Soching ho'l ekan, - dedi.

- Xo'p bo'ladi, xonim.

Shlyapa yechildi.

- Kel, paltongni ham yechamiz.

Qiz o'rnidan turdi. Bir qo'li bilan stuldan ushlab paltosini Rozemariga yechtirdi. Paltosi judayam og'ir edi. U boladay ikkilanib qoldi. Agar odamlar bir-birlariga yordamlashishni xohlasalar, ozroq bo'lsada bir-birlarini hurmat qilishlari kerak, bo'lmasa juda qiyin bo'ladi, deb o'yladi. Endi paltoni nima qilsa ekan? Paltoni ham, shlyapani ham yerga tashladi. Rozemari sigareta tutatmoqchi bo'lib turganda qiz to'satdan:

- Kechirasiz, xonim, hech narsa yeganim yo'q, holdan ketayapman, uyga keta qolay, - deb qoldi.

- Hozir, bir pas kutgin, - deya Rozemari qo'ng'iroqni chaldi. - Choy, tezroq choy keltiringlar, ozroq brendi ham.

Xizmatkor kirib chiqar, qiz esa yig'lamsirab:

- Brendi ichmayman, faqat choy ichaman, xonim, - derdi.

Uning bu holati ayanchli edi. Rozemarining unga rahmi keldi.

- Yig'lama, jonginam, yig'lama, - deya ro'molchasini uzatdi. U boshqa hech nima deya olmadi. Ozg'in yelkasidan quchib bag'riga bosdi. Qiz uyalib o'tirmadi. Ikkalasi ayol ekanligidan tashqari hamma narsani unutdi va xo'rsinib:

- Endi bunday yashay olmayman, chiday olmayman. Bu turishda o'zimni bir narsa qilib qo'yaman, - deya hayotidan noliy boshladi.

- Unday qilma, yordam beraman. Qaragin-a uchrashganimizni. Hozir choy ichamiz, hammasini aytib berasan. Biron narsa o'ylab toparmiz. Yig'lama.

Ular choy kelganda ancha-muncha tinchib qolishgandi.

Xizmatchi qizning oldini har xil shirinliklar bilan to'ldirib tashladi. Rozemari sigareta chekib uni kuzatib o'tirdi. Dasturxon olingach beozor, nimjon qiz charchab o'zini stulga tashladi.

Rozemari sigaretni chekib bo'ldi, gapni boshlash vaqti kelgandi.

- Qachon ovqatlanganding? - so'radi muloyimgina.

Shu payt eshiq ochildi.

- Rozemari, kirish mumkinmi?

Bu Filipp edi.

- Marhamat.

U kirdi. Kirdi-yu, to'xtab qoldi. Rozemari jilmayib:

- Bu dugonam miss...

- Smit, xonim, - dedi qiz qo'rqqmasdan tik qarab.

- Smit, - davom ettirdi Rozemari. - Biroz gaplashmoqchi edik.

- Ha, albatta, - dedi Filipp. Uning ko'zi polda yotgan palto va shlyapaga tushdi. Filipp olovga yaqinlashib: - Judayam yomon kun bo'ldi, - dedi befarq o'tirgan qizga qarab.

- Ha, haqiqatdan ham yomon, - gapini tasdiqladi xotini.

Filipp kulib qo'ydi.

- Kutubxonaga, oldimga kirgin. Miss Smit bizni ma'zur tutar.

- Albatta.

Ular xonadan chiqishdi.

- Menga qara, tushuntirsang-chi bundoq. Kim u o'zi?

Rozemari kuldi, eshikka suyanib javob berdi:

- Keson ko'chasidan topib oldim. Haqiqiy topilma. Choy-chaqa so'radi. Men esa uyga olib keldim.

- Endi u bilan nima qilmoqchisan? - jahli chiqdi Filippning.

- Unga yaxshi muomalada bo'l, - dedi birdan Rozemari, - ahvoli qiyin hozir.

- Azizim, - dedi Filipp, - bilasanmi, sen aqldan ozibsan. Bu umuman mumkin emas.

- Bilardim shunday deyishingni, - e'tiroz bildirdi Rozemari. - U bugun qoladi.

- Lekin bilasanmi... - dedi Filipp sekingina va sigaretasini tishlab: - Istarasi issiqqina ekan, chiroyli, menga yoqdi.

- Chiroyli? - Rozemari kutilmagan gapdan lol qoldi. - Sen shunday deb o'ylaysanmi? E'tibor bermapman.

- Nahotki, - dedi er gugurtni chaqib, - U judayam yoqimli, bir qaragin, azizim. Xonaga kirganda o'zimni yo'qotib qo'ydim... Nima bo'lgandayam xato qilayapsan. Qo'pollik qilgan bo'lsam kechirasan.

- Ahmoq qiz, - dedi Rozemari jahli chiqib. U kutubxonadan chiqib ketdi, lekin qizning oldiga bormadi. Xonasiga kirib stolga yaqinlashdi: "Chiroyli, yoqimli. Nahotki shunday bo'lsa". Chek daftarchasini oldi. Yo'q, chek yordam bermaydi. Tortmani ochib 5 paund oldi. Ikkitasini tashladi, uchtasini qo'lida siqib turdi va qizning oldiga ketdi. Qaytib kelganda Filipp xonada o'tirardi.

- Aytgancha, Filipp, haligi miss Smit biz bilan ovqatlanmaydi, - dedi u tutilib.

Filipp gazetadan boshini ko'tardi.

- Nima bo'ldi?

This is not registered version of TotalDocConverter

Rozemari tilingiz basga Orzu!

- Ketaman deb turib oldi. Ozroq pul berdim, - dedi jilmayib va o'rnidan qo'zg'aldi.

Sochini qaytadan taradi, ko'zlarini bo'yadi, taqinchoqlarini taqib yana Filippga yaqinlashdi-da,

- Men-chi, men yoqamanmi? - deb so'radi sekingina.

- Judayam, azizim, - deb uni o'ziga yanada yaqinroq tortdi eri. Biroz jim turishdi. Rozemari yalindi:

- Bugun chiroyli quticha ko'rdim. 28 giney ekan. Maylimi olsam?

- Ola qol, azizim.

Lekin eri Rozemari kutgan so'zni aytmadi.

- Filipp, - pichirladi u va erining bag'riga battar suqildi:

- Men-chi, men chiroylimanmi?